


**VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR**

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo‘ladi.


Viloyatda bu borada so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta‘minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yil yanvar-sentabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 2 188,7 mln AQSh dollariga yetdi va 2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 207,0 mln AQSh dollariga, yoki 10,4 % ga ko‘paydi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASI**  
(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)



## SAMARQAND VILOYATINING YEUIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-sentabr, mln AQSh dollari, ulushi, % da)




Samarqand viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 795,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi 308,5 mln. AQSh dollari, import hajmi esa 487,2 mln. AQSh dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YeOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.


**SAMARQAND VILOYATINING SHAHAR VA TUMANLAR  
KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI  
(2024-yil yanvar-sentabr)\***

	Hajm mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2 188,7</b>	<b>110,4</b>	<b>100,0</b>
Samarqand shahri	1 254,1	119,3	57,3
Kattaqo'rg'on shahri	42,3	121,3	1,9
<b>tumanlar:</b>			
Oqdaryo	36,6	119,9	1,7
Bulung'ur	30,0	160,9	1,4
Jomboy	214,9	136,9	9,8
Ishtixon	17,6	101,0	0,8
Kattaqo'rg'on	27,7	20,6	1,3
Qo'shrabot	6,4	122,1	0,3
Narpay	24,4	86,8	1,1
Payariq	11,2	84,4	0,5
Pastdarg'om	45,4	92,1	2,1
Paxtachi	15,5	132,9	0,7
Samarqand	173,1	112,2	7,9
Nurobod	15,0	71,2	0,7
Urgut	170,2	123,5	7,8
Toyloq	89,8	82,4	4,1

**Eng yuqori hajm,**  
mln. AQSh dollari



**Eng quyi hajm,**  
mln. AQSh dollari



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulush Samarqand shahri (57,3 % yoki 1 254,1 mln. AQSh dollar), eng quyi ulush esa Qo'shrabot tumani (0,3 % yoki 6,4 mln. AQSh dollar) hissasiga to'g'ri keldi.



## SAMARQAND VILOYATINING EKSPORTI

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma‘lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar tomonidan 598,5 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 123,4 % ni tashkil etdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta‘minlandi.

### XSST\* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2024-yil yanvar-sentabr, ulushi % da)




Samarqand viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

**SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR  
KESIMIDA EKSPORTI**


(2024-yil yanvar-sentabr)\*

	Hajm mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>598,5</b>	<b>123,4</b>	<b>100,0</b>
Samarqand shahri	253,3	124,3	42,3
Kattaqo'rg'on shahri	27,4	132,0	4,6
<b>tumanlar:</b>			
Oqdaryo	19,0	133,2	3,2
Bulung'ur	10,1	88,7	1,7
Jomboy	71,4	121,3	11,9
Ishtixon	11,9	94,6	2,0
Kattaqo'rg'on	6,9	136,3	1,2
Qo'shrabot	1,9	113,6	0,3
Narpay	11,9	72,9	1,9
Payariq	7,3	94,9	1,2
Pastdarg'om	7,8	70,3	1,3
Paxtachi	10,5	111,4	1,8
Samarqand	86,7	165,6	14,5
Nurobod	1,0	28,3	0,2
Urgut	43,3	119,6	7,2
Toyloq	14,4	106,5	2,4

**Eng yuqori hajm,**  
mln. AQSh dollari

**Eng quyi hajm,**  
mln. AQSh dollari

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri 42,3 % ulush bilan 253,3 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Nurobod tumani 0,2 % ulush bilan 1,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.




## SAMARQAND VILOYATINING IMPORTI

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi 1 590,1 mln. AQSh dollarini va 2023-yilning mos davriga nisbatan 106,3 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng yuqori ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (31,0 %), kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (26,4 %) hamda sanoat tovarlari (24,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024-yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)




Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 91,7 mln. AQSh dollariga ko'paydi va 1 585,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar 4,4 mln. AQSh dollariga yetdi.

**SAMARQAND VILOYATINING TUMANLAR  
KESIMIDA IMPORTI**  
(2024-yil yanvar-sentabr)

	Hajm mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>1 590,1</b>	<b>106,3</b>	<b>100,0</b>
Samarqand shahri	1 000,8	118,1	62,9
Kattaqo'rg'on shahri	14,9	105,6	0,9
tumanlar:			
Oqdaryo	17,6	108,3	1,1
Bulung'ur	19,9	2,8 m.	1,3
Jomboy	143,5	146,2	9,0
Ishtixon	5,7	117,3	0,4
Kattaqo'rg'on	20,8	16,0	1,3
Qo'shrabot	4,6	125,9	0,3
Narpay	13,1	104,0	0,8
Payariq	3,8	69,7	0,2
Pastdarg'om	37,6	98,4	2,4
Paxtachi	4,9	2,3 m.	0,3
Samarqand	86,5	84,8	5,4
Nurobod	14,0	79,3	0,9
Urgut	126,9	124,8	8,0
Toyloq	75,4	79,0	4,7

**Eng yuqori hajm,**  
mln. AQSh dollari



**Eng quyi hajm,**  
mln. AQSh dollari



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri 62,9 % ulush bilan 1 000,8 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Payariq tumani 0,2 % ulush bilan 3,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.